

umumlashtirish, jamlik kabi ma'nomalarni ifodalovchi so'z juft termindir. Juftlashuvchi qismlar orasidagi tenglik munosabati yozuvda defis bilan ko'rsatiladi. Talaffuzda bu qismlar teng fonetik cho'qqiga ega bo'ladi, ayni vaqtda ikkinchi yagona leksik urg'u yordamida leksema bo'lib birlashadi". Kitobda *elektron-optik, zichlagich planka, to'qima-trikotaj* kabi terminlar juft terminlar sifatida qayd etilgan.

Juft shakldagi terminlar temiryo'l terminologiyasi tizimida ham ko'p uchraydi: *bitumli-gruntli, sement-tuproqli, shlak-tuproqli, qatron-betonli* kabi terminlar shu turga mansub. Biz bunday terminlarga nisbatan *birikma* terminini qo'lashni ma'qul ko'rdik. Bu tipdagi terminlarga nisbatan *murakkab* so'zini qo'llash ma'qul emasligiga bir necha sabab mavjud. Birinchidan, so'zlar kabi terminlar ham shakl va ma'no birligidan iborat. Shu bois *murakkab* so'zi qo'llanganda terminning shaklida ham, ma'nosida ham murakkablik belgisi tushunilishi mumkin. Bu esa masala mohiyatining yaqqol ifodalanmasligiga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, *murakkab* termini

qo'llanganda asosiy e'tibor tarkibiy qismlar miqdoriga qaratiladi. Bu holda birdan ortiq komponentdan tashkil topgan qo'shma so'z holatidagi terminlar ham, so'z birikmasi shaklidagi terminlar ham anglashilishi mumkin. Holbuki, ko'p hollarda *murakkab* so'zi ostida birikma shaklidagi terminlar nazarda tutiladi.

Aytilganlar asosida temiryo'l terminlarini struktur jihatdan quyidagi guruhlarga ajratishni ma'qul topdik:

- 1) sodda terminlar;
- 2) qo'shma terminlar;
- 3) birikma terminlar;
- 4) qisqartma terminlar.

Biz ushbu izlanish orqali terminlarni tematik guruhlarga semantik xususiyatlar tahlili asosida taqsimladik. Butun temiryo'l terminologik so'z turkumlari o'zaro bog'liq, tizimli tashkil etilgan guruhlar, sinflar, terminlarning uyalar, semantik maydonlar tizimidir. Shuningdek, "terminlar faqat erkin tartibda emas, balki maxsus paradigma hosil qiluvchi ma'lum bir fan yoki sohaning sistematikasiga asoslangan holda guruhlanadi".

1. Temmerman R. Questioning the univocity ideal. The difference between socio-cognitive terminology and traditional terminology. – Amsterdam-Rodopi, 2000. – p. 3.
2. Sh.Ko'chimov. Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari (lingvouridik tahlil): filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2004. 280-bet.
3. X.Norxo'jayeva. O'zbek tilida jarayon anglatuvchi terminlarning lingvistik xususiyatlari: filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2017. 87-bet.
4. R.Doniyorov. O'zbek texnik terminlarining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. 97-bet.
5. N.Qosimov. O'zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari. – Toshkent, 1985. 78-bet.
6. O'sha asar, 1985. 148-bet.

Ulug'bek YO'LDOSHEV,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta
o'qituvchisi, PhD

BADIY TARJIMANI O'RGATISHGA BAG'ISHLANGAN MASHQLAR MAZMUNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarga badiiy tarjimani o'qitishda qo'llaniladigan mashqlar va ularning mazmuni, talabalarga badiiy tarjimani o'qitish jarayonlari, shuningdek, badiiy tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishni shakllantiradigan va rivojlantiradigan mashqlar borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, badiiy tarjima, aslyat matni, tarjima matni, tarjima uslubi, tarjima usuli, mashq, mashqlar tizimi.

Annotation. This article discusses the exercises used in teaching students literary translation and their content, the process of teaching students literary translation, as well as exercises that shape and develop the solution of problems that arise in the process of literary translation.

Keywords: translation, literary translation, original text, translation text, translation style, translation method, exercise, exercise system.

Аннотация. В статье рассматриваются упражнения, используемые при обучении студентов художественному переводу, и их содержание в процессе обучения студентов художественному переводу, а также упражнения, формирующие и развивающие решение проблем, возникающих в процессе художественного перевода.

Ключевые слова: перевод, художественный перевод, оригинальный текст, текст перевода, стиль перевода, метод перевода, упражнение, система упражнений.

"Badiiy tarjimaga o'qitish" kursining maqsadi kelajakda badiiy matn leksikasi bilan bog'liq muammolarga samarali yechim topishda tarjimonga yordam beradigan asosiy, maxsus va professional komponentlarga ega

tarjima kompetensiyasini shakllantirishdir. Ayni vaqtda badiiy asarlar tarjimasidagi leksik birliklarni o'girishda talabalar so'zma-so'z tarjima uslubidan voz kechishga o'rganadilar va kasbiy malaka uchun nafaqat xorijiy til-

ni, balki o'z ona tilini tushunishni boshlaydilar. Badiiy tarjimada tarjimon nafaqat ikki til, balki bir til birligini boshqa til birligiga, bir madaniyatni boshqa madaniyatga o'tkazish shartlari va qoidalarini ham yaxshi bilishi kerak. Buning uchun u muallif o'y-xayollari ifodasining adekvat vositalaridan foydalana olishi zarur, shuningdek, bu jarayonda ham lingvistik, ham evstralingvistik omillarni qamrab oluvchi kompetensiyalar majmuyi ham talab etiladi. Shuni esda tutish kerakki, badiiy tarjima muammosi muallif yaratgan obrazni qayta yaratib berish va yetkazishdir, asl matn va tarjima matni madaniyatlarida tasvirning talqini boshqacha bo'lishi mumkin. Shunday qilib, talqin muammosi birinchi o'ringa chiqadi va shuning uchun badiiy tarjima ustida ishlashni shu bilan boshlash kerak.

Badiiy asarlarni tarjima qilishda badiiy matnni tushunish yozuvchining shaxsiyati, uning ijtimoiy muhiti, davri bilan aloqasini ochib beradi, muallifning badiiy maqsadi va g'oyaviy yo'nalishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu asarni to'g'ri idrok etishga yordam beradi va tarjimonga qiyinchilik tug'diradigan matnning tushunarsiz qismlariga e'tibor qaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimaning oxirgi bosqichi tarjima qilingan matnni tahrir qilishni anglatadi, bu yerda ona tiliga asoslangan ko'nikmalar yozma ravishda qo'llaniladi.

Badiiy tarjimani o'qitish bo'yicha mashqlar bilan ishlashni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

Tayyorgarlik bosqichi – tarjimon malakasining asosiy komponentini tashkil etadi, bunda talabalar tarjimani bajarishdan oldin kerakli nazariy bilimlarni oladi (ma'ruza kursidan boshlanadi);

1-bosqichda matn tarjimadan oldin tahlil hamda talqin qilinadi, ya'ni tarjimadan oldin mashqlar bajariladi va shu orqali talabalarning tarjimaning yaxshiroq variantini topish qobiliyati rivojlantirilib, tarjimani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sharoit yaratiladi;

2-bosqich tarjima vazifalari va mashqlarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda tarjima uslubi va transformatsiyalaridan foydalanib tarjimani muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsad qilinadi;

3-bosqichda tarjima jarayonida yo'l qo'yilgan semantik va stilistik xatolar tahrir qilinib, olib tashlanadi va tuzatiladi. Bu bosqichlar tarjimani o'rgatish modeli uchun asos hisoblanadi.¹

Tarjima jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etish jarayonni samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarjimaoldi mashqlariga singdirilishi zarur. Bu kabi mashqlarni tuzishdan maqsad tarjima jarayonini samarali amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoit hamda kommunikativ muhitni yaratish, talabalarning til va fon bilimini aniqlash, tajribali va yuqori malakali tarjimonlar, odatda, tarjima muammolarini qanday hal qilishini ko'rsatib berishdir.² Latisheva va Provorotovga ko'ra tarjimaoldi mashqlari bosqichida tarjima maqsadlarini belgilash ko'nikmalari rivojlantirilsa, ular keyinchalik refleksiv mahoratga aylanadi. Bunda mashq va topshiriqlar eng yaxshi tarjima variantini aniqlashga mo'ljallangan tarjima maqsadini belgilash ko'nikmasini rivojlantirish, tarjimada xatolarni aniqlash maqsadida yaratiladi. Boshqacha qilib aytganda, ular tarjima matnini baholash va tarjimani o'zi bajarishga

tayyorgarlik ko'rishni maqsad qiladi.³ Shuningdek, u tarjimaoldi bosqichida asliyat matnini tahlil qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar yozma tarjimaning maxsus ko'nikmalariga taalluqli bo'lib, ular ancha murakkab va murakkabligi yuqori bo'lgan matnga tegishlilik uchun badiiy matnlarni tarjima qilishda zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, tarjimani bajarish sifatiga qo'yiladigan talablar ancha yuqori, chunki tarjimaning barcha nomukammalligi vizual va shuning uchun tanqidga ko'proq moyil bo'ladi. Ko'pgina tarjima xatolarining oldini olish uchun ushbu bosqichda matnni tahlil qila olish kerak va buning uchun biz quyidagi vazifalarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

– matn sarlavhasidan uning asosiy g'oyasini taxmin qilish;

– asliyat matni janrini aniqlash va uning xususiyatlarini tahlil qilish;

– matnning sarlavhasi orqali uning bosh semantik mazmunini belgilash;

– madaniy bo'yoqdorlikka ega so'zlarni topish, ularni tahlil qilish va tushuntirish;

– matndagi atoqli otlarni topish, ularni guruhlariga (geografik nomlar, badiiy qahramonlar nomlari va boshqalarga) ajratish.⁴

Tarjimaoldi mashqlari tahlili tarjimadan oldin va tarjima jarayoni o'rtasidagi oraliqqa tegishli bo'lishi mumkin. Shunday ekan, tarjimani o'rgatishga bag'ishlangan barcha mashg'ulotlarni ikkita katta guruhga: tarjimaoldi va tarjima jarayoni mashqlariga bo'lish mumkin.

Tarjima mashqlari, odatda, quyidagilarga bo'linadi:

– tarjima tilidagi til birliklari (leksik, frazeologik, grammatik, stilistik)ning muayyan bir ko'rinishidan foydalanish hamda til semantikasining o'ziga xosliklari bilan bog'liq tarjima muammolariga yechim topish qobiliyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi til mashqlari;

– turli tarjima usullari va transformatsiyalaridan tarjima jarayonida foydalana olish qobiliyatini rivojlantiruvchi operatsion mashqlar;

– tarjima jarayoniga kiritilgan zaruriy kommunikativ harakatlarni namoyish etish qobiliyatini shakllantiradigan kommunikativ mashqlar.

Til mashqlari bevosita tarjimaning lingvistik muammolariga tegishli bo'lib, ular asliyat va tarjima tillari tizimlari o'rtasidagi farqlarga asoslanadi, shuningdek, ular tarjimaning lingvistik nazariyalarida batafsil tasvirlab beriladi. Til mashqlari, asosan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– madaniy konnotatsiyaga ega leksika tarjimasi;

– “tarjimonning soxta do'stlari” tarjimasi;

– kontekstual ma'noni aniqlash;

– so'z birikmalari tarjimasi;

– frazeologik birliklar tarjimasi;

– grammatik muvofiqliklarni tanlashga doir mashqlar.

Operatsion mashqlar tarjima nazariyasidan ma'ruzalar jarayonida egallangan bilimlarni amaliy qo'llash mahoratini shakllantiradi. Mashqlar tarjimaning muayyan usullarini aniqlash va foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday mashqlarga quyidagilar kiradi:

– tarjimada qo'llanadigan tarjima uslubini aniqlash;
– qo'llanilgan usulni (muvofiqlik yoki mos kelmaslikni) baholash;

– belgilangan tarjima usulini qo'llash;
– tarjima usulini tanlash va qo'llash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha mashqlar.

Kommunikativ mashqlar alohida nutq aktlarini bajarishni talab etadi va bir necha turga bo'linadi:

– aslyat va tarjima tillaridagi sinonimlar qatorini tuzish;

– belgilangan matnda tarjima qiyinchiliklarini aniqlash va muhokama qilish;

– matnni perefranz qilish, me'yor buzilishlarini tuza-tish.

Umuman olganda, tarjima mashqlari tarjima jara-yoni bosqichida amalga oshiriladi va nazariy-ilmiy ham-da amaliy xarakterga ega.

Tarjima bosqichining asosiy maqsadi – talabalarni ingliz tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga matnlarni tarjima qilish uchun zarur bo'lgan tarjimaning asosiy uslub va usullaridan foydalanishga o'rgatish.

Mashqlar, asosan, operatsion ko'nikmalarni rivojlanti-rishga qaratilgan. Odatda, har bir mashq bitta tarjima qiyinchiligini o'z ichiga olishi kerak, lekin amalda bu har doim ham mumkin emas. Mashqlar yozma ravish-da auditoriyada tushuntiriladi, mashg'ulotlarda batafsil muhokama qilish, tarjima muammolarini izohlash va tushuntirish tavsiya etiladi. Tarjima mashqlari guruhi ikki tilli mashqlarni o'z ichiga oladi va bu tarjima mashg'ulot-larida eng muhim sanaladi. Ikkinchi bosqichda talaba-lar muayyan tarjima qiyinchiliklarini hal qilishadi, bu yerda leksika, grammatika va sintaksis darajasida turli xil o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyati shakllanadi. Mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli yakunlanishi tarjima jarayonining mohiyatini tashkil etuvchi transformat-siyalardan foydalanishga asoslangan. Biroq ulardan foydalanish aniq qoidalar tizimi bilan tartibga solinma-gan va, asosan, tarjimonning tajribasi hamda sezgisiga asoslangan. Tarjimaning oxirgi bosqichi tarjima qilingan matnni tahrir qilishni anglatadi, bu yerda ona tiliga asos-langan ko'nikmalar yozma ravishda qo'llaniladi.

1. Aksyonova, E.E. (2006). Teaching of writing translation of philological texts from English into Russian. – Moscow.

2. Latyshev, L.K., & Semenov, A.L. (2003). Translation: Theory and Methods of Teaching. – Moscow: Academy.

3. Latyshev, L.K., & Provorotov, V.I. (2001). The structure and content of training translators in language high school. 2nd ed. – Moscow: NVI THESAURUS.

4. Serova T.S., Rutskeya E.A. (2012). Listening training for future interpreters in early stage, Language and Culture, 4 (20), pp. 105–114.

Munajat UMAROVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi;

Aziza XALILOVA,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o'qituvchisi, PhD

PANDEMIYA DAVRIDAGI ONLAYN YAPON TILI DARSLARI: JONLI MULOQOT ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Pandemiya davrida yapon tili onlayn darslarida talabalar-ning chet til bo'yicha og'zaki nutqi va kommunikativ kompetensiyalarini rivoj-lantirish bilan bog'liq bir qator muam-molar kuzatildi. Mazkur maqolada mavjud muammoni yechish maqsadida amalga oshirilgan jonli muloqot loyihasi haqida ma'lumot berilib, uning salbiy va ijobiy natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: onlayn ta'lim, jonli muloqot loyihasi, madaniyatlararo mu-loqot, kommunikativ kompetensiya, Zoom ilovasi.

Annotation. During the pandemic, in Japanese online classes, a num-ber of problems related to the devel-opment of students' oral speech and communicative competencies in a foreign language were observed. This article provides information about a live communication project implemented to address the existing problem and ana-lyzes its negative and positive results.

Keywords: online education, live communication project, intercultural communication, communicative com-petence, Zoom application.

Аннотация. В период пандемии на онлайн-уроках японского языка наблюдались некоторые проблемы, связанные с развитием устной и ком-муникативной компетенций студен-тов на иностранном языке. В статье представлена информация о проекте живого общения, реализованном для решения данной проблемы, и про-анализированы его отрицательные и положительные результаты.

Ключевые слова: онлайн-об-разование, проект живого общения, межкультурная коммуникация, ком-муникативная компетенция, прило-жение Zoom.

O'zbekistonda pandemiya bilan bog'liq "lokdaun" 2020-yilning mart oyi o'rtalarida e'lon qilinib, barcha ta'lim muassasalari onlayn tarzda o'qitish tizimini joriy

eta boshladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tish, o'quv materiallari va vazifalarni talabalarga yetkazish hamda ularni baholashda, asosan, universitetlarning